

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RASHIDOV FIRUZ TUYG‘UNOVICH

**DINIY TASHKILOTLAR VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI
O‘ZARO MUNOSABATLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Rashidov Firuz Tuyg‘unovich

Diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....3

Рашидов Фируз Туйгунович

Вопросы совершенствования теоретико-правовых основ взаимодействия религиозных организаций и институтов гражданского общества.....21

Rashidov Firuz Tuygunovich

Issues of improving the theoretical and legal foundations of interaction between religious organizations and civil society institutions.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01
RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RASHIDOV FIRUZ TUYG‘UNOVICH

**DINIY TASHKILOTLAR VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI
O‘ZARO MUNOSABATLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Yu387 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Jamoat xavfsizligi universiteti veb sahifasi (www.mgjxu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Toshqulov Jo‘raboy Urinbayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedova Muqaddas Tursunovna
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Xudoyberdiyev Axror Qosimalievich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 9-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.:(99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; info@mgjxu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-50.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 26-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 26-dekabrda 2-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X.Rustambayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

J.D.Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Sh.X.Zulfiqorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi munosabatlar modellarining xilma-xil holda saqlanib qolayotgani, shuningdek, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini normativ jihatdan belgilashda yagona yondashuvning mavjud emasligi ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan erkin va samarali hamkorlik qilish imkoniyatlarini muayyan darajada cheklamoqda. Xususan, BMT ma'lumotlariga asosan, 2024-yil holatiga ko'ra 30 dan ortiq mamlakatda diniy tashkilotlar va guruhlar turli shakldagi ta'qiblarga duch kelmoqda¹, «Freedom House» hisobotlarida esa, 56 mamlakatda diniy tashkilotlar faoliyatiga huquqiy va ma'muriy cheklovlar o'rnatilgani qayd etilgan². Mazkur holat diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishdagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, ular o'rtasidagi munosabatlarni tizimli monitoring qilish hamda diniy erkinlik va fuqarolik jamiyati huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro konvensiyalar va standartlarga qat'iy rioya etish zaruratini taqozo etmoqda. Bu esa diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Jahonda dinning fuqarolik jamiyatidagi o'rni va uning ijtimoiy hayot rivojiga ta'siri tobora ortib borayotgani, diniy tashkilotlarning davlat bilan hamkorlik masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani hamda ularning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi ishtiroki kengayayotgani ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanmoqda. Shuningdek, mustaqillik yillarida dinga munosabatning qayta tiklanishi jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatib, diniy tashkilotlarning ijtimoiy adolat, tinchlikparvarlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilishdagi roli va samaradorligini oshirish zaruratini kun tartibiga qo'ymoqda. Mazkur jarayonlar diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyatiga ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni, shuningdek, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks o'rganishni taqozo etadi. Bu esa sohadagi mavjud muammolarni aniqlash, ularga samarali yechimlar ishlab chiqish hamda diniy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi muntazam muloqot amaliyotini yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda davlat va din munosabatlari jamiyatning ijtimoiy-madaniy, siyosiy-huquqiy hamda ma'naviy-ma'rifiy hayotining ajralmas qismi sifatida shakllanib, mavjud an'analar va davlat tuzilmalari doirasida davlat-konfessiya munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro va milliy huquqiy normalarga muvofiq ravishda din va dindorlarga nisbatan yangicha yondashuvlarni joriy etish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni yangilash va takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati

¹<https://www.ohchr.org/en/special-procedures/sr-religion-or-belief> (11.08.2025)

²<https://freedomhouse.org/issues/religious-freedom> (11.08.2025)

konsepsiyasini qabul qilish orqali fuqarolik jamiyatida diniy tashkilotlarning oʻrni va ahamiyatini oshirishga alohida eʼtibor qaratildi. Shu bilan birga, 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, fuqarolarda qonunga hurmat va itoat qilish hissini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor yoʻnalish va vazifalar belgilangan¹. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati Konsepsiyasida diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadlari, vazifalari, prinsiplari hamda ustuvor yoʻnalishlari² aniq ifodalangan. Mazkur normativ-huquqiy asoslar diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning nazariy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, ushbu sohada mavjud muammolarni kompleks tarzda oʻrganishni taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida»gi (1999), «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida»gi (2006), «Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida»gi (2013), «Ijtimoiy sheriklik toʻgʻrisida»gi (2014) va «Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida»gi (2018), «Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida»gi (2016), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida»gi (2021), "Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi (2025) qonunlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni va 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida keltirilgan 20-maqсад: «Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar oʻrtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish»ga oid, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son «Diniy-maʼrifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son «2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi, 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son «Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son «Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-maʼrifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Farmonlari, shuningdek, sohaga tegishli boshqa qonunosti meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, qonun hujjatlarini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimini topishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.»Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy,

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

² Oʻzbekiston Respublikasining 2025- yil 25-fevraldagi «Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi OʻRQ-1037-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-7404923>.

iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslariga oid ayrim masalalar A.Azizxo'jayev, M.Axmedshayeva, S.Adilxodjayeva, H.Boboyev, I.Bekov, A.Begmatov, Sh.Jalilov, Sh.Zulfiqorov, Z.Islomov, B.Ismailov, G.Ismailova, G.Malikova, X.Mamatov, M.Mirakulov, F.Muhitdinova, O'.Muxamedov, M.Najimov, X.Odilqoriyev, F.Otaxanov, Sh.Paxrutdinov, M.Rahmonqulov, F.Rahimov, A.Rahimov, Z.Ro'ziyev, X.Ro'zmetov, A.Saidov, J.Toshqulov, B.Toshev, I.Tulteyev, A.Tursunov, A.Tulyaganov, M.Fayziyev, Sh.Fayziyev, R.Hakimov, O.Husanov, D.Holmanova, Y.Holova, Sh.Urazayev, Sh.Yakubov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Jumladan, diniy tashkilotlar yuridik shaxs sifatida B.A.Nogayevning (2000), diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy muammolari M.A.Rajabovning (2002), fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli nazariy-huquqiy jihatdan J.M.Abdullayevning (2008), O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari B.I.Jo'rayevning (2008), huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil ekanligi O.T.Nasriddinovaning (2009), fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy muammolari U.Y.Fozilovning (2009), Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari X.T.Mamatovning (2011), davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish Sh.U.Yakubovning dissertatsiyalarida (2018) tadqiq etilgan.

MDH davlatlari olimlari A.S.Axiezer, B.S.Erasov, I.L.Inozemsev, I.K.Liseyev, M.P.Mchedlov, A.S.Panarin, I.V.Sledzevskiy, A.N.Chumakov, N.I.Muzaffarova, R.A.Nabiyevning tadqiqot ishlarida, A.A.Krasikov, D.Furman, A.V.Loginov, N.N.Potashinskaya, Y.N.Rutkevich, V.N.Savelev, Y.Y.Sinelinalar va boshqalarning tadqiqot ishlari fuqarolik jamiyati, uning institutlari, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy, siyosiy, falsafiy, ijtimoiy jihatlariga bag'ishlangan.

Xorijiy davlatlarda V.I.Garadji, Sh.Eyzenshtat, Ch.Teylor, A.Toynbi, S.Xantington, O.Shpengler, P.Kamper, K.Dyurem, I.Mardyanova, P.K.Moreno, S.Ferrari va boshqalarning ishlarida fuqarolik jamiyati institutlari tizimida dinlararo munosabatlarning holati, rivojlanish istiqbollari va yo'nalishlari bayon qilingan¹.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi diniy tashkilotlar bilan fuqarolik jamiyati boshqa institutlari o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti sifatida diniy tashkilotlarning ijtimoiy-huquqiy maqomini aniqlashtirish;

diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro huquqiy munosabatlariga oid xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish;

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlar huquqiy maqomining o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

diniy tashkilotlarning fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro munosabatlariga oid nazariy-huquqiy masalalarini tahlil qilish;

diniy tashkilotlarning ayrim jamoat birlashmalari bilan o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy jihatlarini yoritish;

diniy tashkilotlarning siyosiy partiyalar bilan o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy tahlilini amalga oshirish;

fuqarolik jamiyati institutlari va diniy tashkilotlar hamkorligiga oid muammolarning yechimiga oid nazariy-huquqiy yondashuvlarni o'rganish;

fuqarolik jamiyati institutlari va diniy tashkilotlar munosabatlarining rivojlanish muammolarini tadqiq etish;

diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniy asoslarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishga oid ilmiy xulosalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari munosabatlariga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik usullaridan, shuningdek, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishlari materiallarini o'rganish va boshqa metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

terrorizmni moliyalashtirish xavfi mavjudligi sababli jamoat fondlari va diniy tashkilotlarda benefitsiar mulkdorni aniqlash, shaffoflik reyestri, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, ichki audit hamda maqsadli o'quv-treninglar orqali riskka asoslangan ichki nazorat (*compliance*) tizimini tashkil etuvchi huquqiy-institutsional modelni joriy etish va shu yo'nalishda bilim hamda ko'nikmalarni tizimli oshirish zarurati asoslantirilgan;

ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat va diniy birlashmalar o'rtasida politsentrik koordinatsiya tamoyillarini (subsidiarlik, hisobdorlik, vakolatlar xaritasi), standart operatsion tartib-qoidalar (SOT) va ma'lumot almashinuvi uchun huquqiy rejimni (*data governance*) joriy etish orqali harakatlarni muvofiqlashtirish zarurati asoslantirilgan;

diniy sohada davlat siyosatini amalga oshirishda konfessiyalararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash maqsadida davlat organlari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida huquqiy plyuralizm, neytrallik, kamsitmaslik va mutanosiblik tamoyillari, ijtimoiy-diniy mediatsiya hamda jamoatchilik kengashlari, shuningdek, «totuvlik indeksi» bo'yicha monitoring mexanizmlarini joriy etish orqali «uch tomonlama platforma»ga tayanadigan hamkorlikning huquqiy arxitekturasini mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirishda keng jamoatchilik, nodavlat notijorat tashkilotlari, diniy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda fuqarolar bilan hamkorlikda tartibga solish (*coregulation*) va ochiq hisobdorlik mexanizmlarini (jamoat eshituvlari, ijtimoiy ekspertiza, regulyator ta'sirni baholash – RIA, ochiq ma'lumotlar va hisobotlilik, nizolarni hal etishning protsessual kafolatlari) joriy etgan holda tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«diniy tashkilot»ning nafaqat ma'naviy, balki jamiyatning ijtimoiy-huquqiy subyekti sifatidagi funksiyasini aks ettiruvchi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslari bu dunyoviy, demokratik davlatda diniy tashkilotlar hamda boshqa fuqarolik jamiyati subyektlari (NNTlar, mahalla, kasaba uyushmalari, OAV va h.k.) o'rtasidagi qonuniy, plyuralistik va o'zaro hurmatga asoslangan normativ mustaqillik, funksional sheriklik, o'zaro huquqiy javobgarlik tamoyillari asosida hamkorlikni ta'minlovchi ilmiy nazariyalar, huquqiy mexanizmlar va tashkiliy-huquqiy shakllar majmuasi ekanligi asoslantirilgan;

vijdon erkinligi bu nafaqat fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik, balki dinni erkin tanlash yoki uni o'zgartirish bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi ekanligi asoslantirilgan;

diniy tashkilotlarning jamiyatdagi roli, xususan, fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdagi ta'sirini monitoring qilish mexanizmini joriy etish zarurati asoslantirilgan;

Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash institutida mahalla xotin-qizlar faoli, mahalla yoshlar yetakchisi, mahalla fuqarolar yig'ini kengashi a'zolari ishtirokida diniy-ma'rifiy malaka oshirish kurslari; professional din sohasi vakillari, otinoyilar uchun esa dunyoviy davlat va ijtimoiy hayot masalalariga oid malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 200 dan ortiq olimlar va amaliyotchi xodimlar va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan diniy

tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslariga oid masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, milliy qonunchilikni takomillashtirish, «Davlat va huquq nazariyasi», «Huquqiy ta’limotlar tarixi» modullari, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida «Vijdon erkinligining xalqaro va milliy huquqiy asoslari» moduli, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti tinglovchilariga «Din va davlat munosabatlarining huquqiy asoslari» modullari o‘quv mashg‘ulotlari hamda mazkur modullarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari mavzusini tadqiq etish bo‘yicha olingan xulosalar natijasi asosida:

terrorizmni moliyalashtirish xavfi mavjudligi sababli jamoat fondlari va diniy tashkilotlarda benefitsiar mulkdorni aniqlash, shaffoflik reyestri, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, ichki audit hamda maqsadli o‘quv-treninglar orqali riskka asoslangan ichki nazorat (*compliance*) tizimini tashkil etuvchi huquqiy-institutsional modelni joriy etish va shu yo‘nalishda bilim hamda ko‘nikmalarni tizimli oshirish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan 2023-yil 6-maydagi «Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining 2023-va 2024-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 192-son qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2023-va 2024-yillarda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning 14-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2025-yil 2-maydagi №12-16-34-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda jamoat fondlari va diniy tashkilotlarda ichki nazoratni tashkil etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish tizimini yo‘lga qo‘yishga xizmat qilgan;

ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat va diniy birlashmalar o‘rtasida politsentrik koordinatsiya tamoyillarini (subsidiarlik, hisobdorlik, vakolatlar xaritasi), standart operatsion tartib-qoidalar (SOP) va ma’lumot almashinuvi uchun huquqiy rejimni (*data governance*) joriy etish orqali harakatlarni muvofiqlashtirish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiyasi 7-paragrafini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2025-yil 17-apreldagi 02-02/02/1/1042-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda davlat organlari hamda jamoat va diniy birlashmalarning harakatlarini o‘zaro muvofiqlashtirilishiga xizmat qilgan;

diniy sohada davlat siyosatini amalga oshirishda konfessiyalararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash maqsadida davlat organlari, diniy tashkilotlar va

fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida huquqiy plyuralizm, neytrallik, kamsitmaslik va mutanosiblik tamoyillari, ijtimoiy-diniy mediatsiya hamda jamoatchilik kengashlari, shuningdek, «totuvlik indeksi» bo'yicha monitoring mexanizmlarini joriy etish orqali «uch tomonlama platforma»ga tayanadigan hamkorlikning huquqiy arxitekturasini mustahkamlash lozimligi to'g'risidagi taklifdan 2025-yil 25-fevraldagi O'RQ-1037-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasining 17-bandi «v» kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 13-martdagi №3/dn-53-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi diniy sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishda konfessiyalararo totuvlikni va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda davlat organlari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirishda keng jamoatchilik, nodavlat notijorat tashkilotlari, diniy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda fuqarolar bilan birgalikda tartibga solish (*coregulation*) va ochiq hisobdorlik mexanizmlarini (jamoat eshituvlari, ijtimoiy ekspertiza, regulyator ta'sirni baholash – RIA, ochiq ma'lumotlar va hisobotlilik, nizolarni hal etishning protsessual kafolatlari) joriy etgan holda tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish lozimligi to'g'risidagi taklifdan 2025-yil 25-fevraldagi O'RQ-1037-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasining 40-bandi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 13-martdagi №3/dn-53-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi diniy sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishda keng jamoatchilik, nodavlat notijorat tashkilotlari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda fuqarolar bilan hamkorlikni mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola (shundan 7 ta maqola xorijiy jurnalda) va to'plamlar tarkibida 7 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Fuqarolik jamiyati instituti sifatida diniy tashkilotlar tushunchasi, mohiyati, nazariy-huquqiy tahlili**» deb nomlanib, unda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti sifatida diniy tashkilotlarning ijtimoiy-huquqiy maqomi, diniy tashkilotlarni tuzish va ular faoliyatini shakllantirishning huquqiy asoslari, diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro huquqiy munosabatlariga oid xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlar huquqiy maqomining o'ziga xos jihatlariga oid masalalar tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, diniy tashkilotlar faqat ibodat maskanlari emas, balki jamiyatda mustaqil faoliyat yurituvchi, yuridik shaxs maqomiga ega, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi fuqarolik jamiyati subyektlaridir. Davlat va huquq nazariyasining bugungi rivojlanish tendensiyasida diniy tashkilotlar izolyatsiyalangan konfessiya emas, balki jamiyatda faol ta'sir ko'rsata oluvchi, fikr va madaniyatni shakllantiradigan subyekt hamdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyati institutlari majmuini tashkil etuvchi jarayonlardagi ishtiroki borasida antik davr faylasuflari (Aflotun va Arastu), o'rta asr mutafakkirlari (Tomas Gobbs, Jon Lokk, Gegel, Adam Smit, Tomas Peyn, Monteske), shuningdek, huquqshunos olimlarning (N.Matuzov, R.Alekseyev, L.A.Morozova, M.S.Topchiyev, P.Klitur, A.Ellian, V.A.Jivulin, N.Volodina I.Ponkin, M.Shaxov, X.Odilqoriyev, M.Axmedshayeva, Sh.Yakubov) yondashuvlari tahlil qilingan hamda fuqarolik jamiyati tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan holda diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur degan xulosaga kelingan.

Xorijiy mamlakatlarning konfessional tipologiyasi o'rganilib, ular shartli ravishda teokratik, klerikal, sekulyar va ateistik tiplarga ajratilishi, diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomi davlatlarning konfessional tipologiyasiga bog'liq ekanligi ko'rsatib berilgan. Jumladan, dissertantning qayd etishicha, dunyoviy davlatlar (Fransiya, Hindiston, Qirg'iziston) tajribasida diniy tashkilotlar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya jamg'armalari, kasaba uyushmalari kabi institutlar bilan neytral va teng huquqli asosda hamkorlik qiladi. Dunyoviy davlatlarda sekulyarizm (dunyoviylik) tamoyili faqat «davlat dunyoviy» degan bayonot bilan cheklanmaydi, balki alohida konstitutsiyaviy norma sifatida, hech qaysi din davlat yoki majburiy din sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi aniq ko'rsatib o'tiladi. Bu ikkitalik formula – «davlatning dunyoviyligi» hamda «hech qaysi din davlat dini sifatida

belgilanmasligi» huquqiy bo'shliqni to'ldiradi va vijdon erkinligi hamda barcha din va e'tiqodlar tengligi uchun to'liq kafolat yaratadi. Shuningdek, bugungi kunda dunyoviylik va fikr erkinligi asosida e'tiqodga asoslangan tashkilotlar (*Faith-Based Organizations*) ham fuqarolik jamiyati tizimida umumiy huquqiy asosda tan olinishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Buni diniy tashkilotlar huquqiy jihatdan yoki fuqarolik jamiyatining mustaqil institutlari (AQSH, Germaniya), yoki ijtimoiy ahamiyatga ega jamoat birlashmalari sifatida (Fransiya, Belgiya, Qozog'iston) yoki ularning NNTlar bilan teng huquqiy maqomi (Germaniya, Kanada, Janubiy Afrika) rasman tan olinishi hamda ijtimoiy sheriklikda faol ishtirok etishiga oid xorijiy davlatlar tajribasi ham ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlarda diniy tashkilotlar va boshqa jamoat tashkilotlari hamkorligi imkoniyatlari, mezoni tadqiq etilgan holda O'zbekistonda diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro munosabatlarini takomillashtirish istiqbollariga oid nazariy-huquqiy masalalar tahlil qilingan.

Fuqarolik jamiyati – jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ixtiyoriy ravishda boshlang'ich nodavlat tizimlarni o'z ichiga qamrab olgan, insoniy birlik sifatida shakllangan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuini o'zida mujassam etgan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati ekanligi asoslantirilgan.

Fuqarolik jamiyati g'arbda ham, sharqda ham qadimgi davrlardan qo'llanilib, sharq mutafakkirlari qarashlarida adolatli, halol rahbar timsolida gavdalantirilgan bo'lsa, g'arb olimlari tomonidan ixtiyoriy tarzda o'zlarini namoyon qila oladigan, turli uyushma va tashkilotlarga birlashadigan, davlat hokimiyati organlari tazyig'idan himoyalangan individlar guruhi sifatida ta'riflanib, ikkala qarash ham bugungi zamonaviy o'zbek fuqarolik jamiyatini qurishda ahamiyatli degan xulosaga kelingan. Xorijiy mamlakatlarda davlat, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nazariy-huquqiy asoslari tahlillaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko'rish lozimligi, konfessional tipologiya bo'yicha separatsion modelga mansub davlatlarda din va davlat o'rtasida hamkorlik aloqalari deyarli yo'q ekanligi va bunday model, oxir-oqibat, ateistik rejim o'rnatilishiga zamin yaratishi mumkinligi, O'zbekistonda din insonlarning nafaqat imon-e'tiqodi, balki azaliy qadriyati, urf-odat va an'analari bilan qorishib ketib, kundalik hayot tarzining ma'no-mazmunini tashkil etuvchi omil, jamiyatda tiriklik va oxirat o'rtasidagi muvozanatni saqlab turuvchi vosita ekanligi, mamlakatda davlat va din munosabatlari hamkorligining kooperatsion modeli huquqiy asoslarini takomillashtirib borish zarurligi tahlili asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O'zbekistonda diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy masalalari**» deb nomlanib, ushbu bobda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlar huquqiy maqomining o'ziga xos jihatlari, diniy tashkilotlarning fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari,

shuningdek, boshqa ayrim jamoat birlashmalari bilan o‘zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy tahliliga oid masalalar yoritilgan.

Dissertant tomonidan diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslari bu dunyoviy, demokratik davlatda diniy tashkilotlar hamda boshqa fuqarolik jamiyati subyektlari (NNTlar, mahalla, kasaba uyushmalari, OAV va h.k.) o‘rtasidagi qonuniy, plyuralistik va o‘zaro hurmatga asoslangan normativ mustaqillik, funktsional sheriklik, o‘zaro huquqiy javobgarlik tamoyillari asosida hamkorlikni ta‘minlovchi ilmiy nazariyalar, huquqiy mexanizmlar va tashkiliy-huquqiy shakllar majmuasi ekanligi asoslantirilgan.

Shuningdek, mahalla institutining fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi deb tan olingan milliy model ekanligi va uning boshqa jamoat tashkilotlari bilan, xususan, diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarining nazariy-huquqiy asoslari va hamkorlikda olib boradigan faoliyati muayyan milliy, axloqiy, maishiy tartib qoidalarga amal qilish, turli ma‘raka va tadbirlarni, to‘y va marosimlarni, yaxshi va yomon kunlarni birgalikda o‘tkazish, ahillik va mehr-oqibatni ta‘minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jamoa ekanligi, diniy tashkilotlar esa insonlarning diniy ehtiyojlarini birgalikda qondirish, diniy marosimlarni birgalikda ado etish asosida ish ko‘radigan ixtiyoriy, teng huquqli o‘zini o‘zi boshqaruvchi uyushma ekanligi, mahallada tashkil etiladigan turli ma‘raka va tadbirlar, to‘y va marosimlarning diniy tashkilot vakili ishtirokida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanligi va samaradorligidan kelib chiqib, ular o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va uning nazariy-huquqiy asoslarini mustahkamlash ijtimoiy muammolarni o‘rganish va bartaraf etishning eng maqbul usuli bo‘lishi mumkinligi bilan ahamiyatli ekanligi huquqshunos olimlarning ilmiy yondashuvlari, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotdan kelib chiqqan holda tahlil qilingan.

Muallifning fikricha, jamiyatda an‘anaviy, milliy va diniy qadriyatlarga nisbatan bepisand munosabatlarning davom etishiga e‘tiborsizlik, «ommaviy madaniyat» unsurlarining asta-sekin kirib kelishi, fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos instituti sifatida tan olingan mahallaning o‘rni va mavqeyining tushishi, xalqimizning asrlar osha avloddan avlodga yetib kelgan boy madaniy merosi bo‘lmish an‘anaviy qadriyatlarning kamayishi, natijada esa o‘zbek xalqi milliy identifik xususiyatlarining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkinligi asoslantirilgan.

Jamoat tashkiloti sifatida xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari faoliyati ham o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlatchiligi tarixida ushbu tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bir necha bor o‘zgarganligi, bunda jamoat tashkilotlari faoliyati tugatilib, xotin-qizlar va yoshlar masalalari davlat tashkilotlari nazoratiga o‘tkazilganligi, buning sabablari sifatida bir tomondan, globallasuv zamonida «ommaviy madaniyat»ning ta‘siri butun jahonda kuchayib borayotgan davrda xotin-qizlarga nisbatan qo‘llaniladigan diskriminatsiya, turli tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish, gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan masalalar, shuningdek, jamiyatning kelajagi bo‘lmish yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va ularning qiziqishlariga oid masalalarni bir soniyaga ham e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmasligini anglatishi bilan ahamiyatli deyilsa, ikkinchi tomondan, jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada jonlantirish uchun aholining bu boradagi huquqiy ongi va madaniyatini yanada

yuksaltirish, ularda daxldorlik hissini kuchaytirish, jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro samarali hamkorlik o'rnatishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruratini taqozo qilishi tahlil qilingan holda, har qanday holatda ham, tashkiliy-huquqiy maqomidan qat'i nazar, xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari va diniy tashkilotlarning hamkorligi zarur ekanligi asoslantirilgan. Bundan tashqari, dissertant tomonidan «diniy tashkilot»ning nafaqat ma'naviy, balki jamiyatning ijtimoiy-huquqiy subyekti sifatidagi funksiyasini ham aks ettiruvchi mazmundagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyati institutlari tizimida tutgan o'rni hamda ular o'zaro hamkorligini takomillashtirish muammolari**» deb nomlanib, unda fuqarolik jamiyati institutlari va diniy tashkilotlar hamkorligiga oid muammolarning yechimiga oid nazariy-huquqiy yondashuvlar, fuqarolik jamiyati institutlari va diniy tashkilotlar munosabatlarining rivojlanish muammolari hamda diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniy asoslarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan.

Izlanuvchi tomonidan globallashtirish zamonida insonning huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, inson qadrini ulug'lash, yaratilayotgan har qanday ne'matlar inson farovonligiga xizmat qilishini anglash bilan birga jahonda keng targ'ib qilinayotgan kosmopolitizm g'oyalaridan himoyalash, «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'sirini kamaytirish va milliy o'zlikni asrab qolishga erishish zamonaviy jamiyatlar oldidagi eng dolzarb vazifa ekanligi, O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga dunyoviy, demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilgan bo'lsa-da, demokratik jamiyatlarda huquq ijodkorligining asosini umume'tirof etilgan normalar bilan birga asrlar davomida shakllangan va sayqallangan qadriyatlar tashkil etishi, diniy tashkilotlarning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni va ahamiyati, diniy qadriyatlarining milliy qadriyat va an'analar bilan uyg'unligi, odat normalarining amaliy ahamiyati darajasi diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish va uning tashkiliy-huquqiy yechimlarini topish zaruratini taqozo qilishi asoslangan.

Dissertantning qayd etishicha, jamoat tashkilotlari jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarga yechim topishda diniy tashkilotlar bilan turli darajadagi amaliy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan bo'lsa-da, ijtimoiy hayotda o'zaro hamkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslari, hamkorlik doirasi va mezonlari belgilab berilmagan. Diniy tashkilotlarning mahalla, yoshlar va ayollar tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari tizimini yaratish, uning yo'nalishlari va mezonlarini belgilash, hamkorlik aloqalari tuzilmasini mustahkamlash va hamkorlik faoliyatini tizimli yo'lga qo'yishning bir qancha tashkiliy-huquqiy muammolari mavjud.

Qayd etilishicha, mahalla faoliyatining asosiy prinsiplariga o'zini o'zi boshqarish organi sifatida qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkorlik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam bilan birgalikda ijtimoiy sheriklik va mahalliy urf-odat va an'analarni hisobga olish kabilar kiritilgan. O'zini o'zi boshqarish organlarida fuqarolar yig'ini raisi va fuqarolar yig'ini kengashining vakolatlariga ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqiga rioya

etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan chora-tadbirlarni ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqish, yosh avlodni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy-mehnat rehabilitatsiyasida jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni ijtimoiy moslashuv markazlari bilan birgalikda amalga oshirishdan iboratligi e'tirof etiladi. Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqiga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan chora-tadbirlarni ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalar, shuningdek, jazo muddatini o'tab ozodlikka chiqarilgan shaxslar (jinoyatlar ekstremizm yoki fundamentalizm bilan bog'liq bo'lsa) bilan olib boriladigan profilaktik suhbat va boshqa chora-tadbirlarni belgilash uchun mahalla fuqarolar yig'ini raisi va fuqarolar yig'ini kengashi a'zolaridan maxsus diniy bilimga ega bo'lish yoki diniy tashkilotlar vakillari bilan hamkorlik qilish zarurati yuzaga kelishi tahlil qilingan. Missionerlik va prozelitizm harakatlari, turli ekstremistik guruh va noqonuniy diniy tashkilotlar ta'siriga tushish orqali an'anaviy milliy va diniy qadriyatlarni obro'sizlantirishga, jamiyatda nosog'lom ijtimoiy muhitni yuzaga keltirishga bo'lgan urinishlar ko'lami ortib, ushbu harakatlar mahalla faollarining diniy-ma'rifiy savodxonligini oshirish, diniy tashkilotlar bilan tizimli hamkorlik aloqalarini o'rnatish va yuzaga kelayotgan muammolarga qarshi samarali kurashishni talab qilishi bayon etilgan. Oilalarda nikoh yoshiga yetmagan qizlarni qonunga xilof tarzda diniy rasm-rusumlar asosida turmushga berish, qonuniy nikohda bo'la turib boshqa ayollar bilan shar'iy nikohga kirishish, ko'p xotinli bo'lish, ajrimlar natijasida voyaga yetmagan farzandlarni qarovsiz qoldirish yoki ruhiy bosim o'tkazish bilan bog'liq ko'plab huquqbuzarliklar aniqlanganda, huquqiy ta'sir choralarni qo'llashdan oldin muammoning yuzaga kelish sabablarini o'rganish va ularni profilaktika qilishda mahalla faollarining fikr yoki xulosalarini olish zaruratini yuzaga keltirib, bu mahalla faollarining huquqiy, diniy-ma'rifiy savodxon bo'lishlarini yoki diniy tashkilotlar bilan uzviy hamkorlik aloqalarini o'rnatishlari zaruratini yuzaga keltirishi bilan ahamiyatli ekanligi asoslantirilgan.

Muallif amaliyotda diniy normalar mavjud huquq normalari bilan har doim ham muvofiq bo'lmay, huquqiy oqibat keltirib chiqarmasa-da, uni to'g'ridan-to'g'ri hayotga tatbiq etishga urinish holatlari uchrashi, bunday harakatlar jamiyatda yetarli huquqiy, diniy-ma'rifiy bilim va malakaga ega bo'lmagan fuqarolar o'rtasida dialektik ziddiyatning shakllanishiga olib kelib, turli muammolarga sabab bo'lishini qayd etadi.

